

**G.P.Isayeva**

*Guliston davlat pedagogika instituti*

*E-mail: Isayeva@inbox.uz.*

**Mazkur maqolada:** Xoja Ahmad Yassaviyning ijodi, ayniqsa hikmatlarini psixologik jihatlari tahlil qilingan. Xoja Ahmad Yassaviy komillikning asosini, ilmda, aqliy va ma'naviy poklikda deb bilgan va bu bilan u xalq orasida katta shuhrat qozonganligi va o'zini o'zgalardan ustun qo'ymasligi, valiyman deb, kibru havoga berilmaganligi, aksincha, o'ziga tanqidiy nazar bilan qarab, o'zini va o'zgalarni bilimdonlikka, kamtarlikka chaqirganligi bugungi kun yoshlar ruhiyatiga ta'sir etish va ular uchun ibrat namuna ekanligi yoritilgan.

**Kalit so'zları:** “Rasoil”, “Faqirnoma”, “Devoni hikmat”, So'fiylik, komil inson, so'fiylik, devon, hikmatlar, tasavvuf, ilm, aql, ta'lif-tarbiya, e'tiqod, ma'naviyat.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy sohalarda mohiyati va ko'lamiga ko'ra asrlarga teng tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'liqni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz. Farzandlarimiz yuragida, boy tariximizga, milliy qadriyatimizga, maqaddas dinga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz lozim.

Milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga yurtimizda yashayotgan har bir inson, unib o'sib kelayotgan yangi avlodnining har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, diniy sog'lom fikr, iymoni butun bo'lib voyaga yetish uchun keng jamoatchilik va aholimiz o'rtaida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldaggi PQ-3160-sondagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida» qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalgalashirishda mazkur tadqiqot ishi ma'lum darajada xizmat qiladi. Shu nuqtai nazaridan ham buyuk ajdodlarimizning, jumladan Xoja Ahmad Yassaviy merosida o'z ifodasini topgan ruhiy kamol, ruhiy ma'naviy g'oyalarni o'rganish ham ilmiy ham ijtimoiy amaliy zaruriyatdir.

Xoja Ahmad Yassaviy so'fiylik ta'lifotining aksariyat qismi imon-e'tiqodga bag'ishlangandir. Asosan, insonning ruhiy va aqliy jihatdan shakllanishiga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan buyuk alloma ma'rifikat ma'qomida ilm, insonda aql va tafakkur shakillanishining poydevori ekanligini ko'rsatadi hamda bu maqom insonning axloqiy shakillanishini ham o'z ichiga qamrab oladi, deb tushuntiradi. Shuningdek, u ruhiy, aqliy va inson axloqi shakillanish jarayonlarini o'zaro uzviy bog'liqlikda ham asoslab bera olgan.

So'fiylik maqomidagi ushbu tamoyillari insonning diniy sog'lom fikr egasi bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Ayniqsa, bugungi kunda sog'lom fikrlovchi ta'lim tizimida Xoja Ahmad Yassaviyning "Rasoil", "Faqirnoma", "Devoni hikmat" asarlaridagi diniy va dunyoviy bilimlar bilan ta'minlovchi hikmatlardan foydalanish o'quvhci va talabalarni aqliy va diniy sog'lom fikrlovchi kuchli e'tiqod egasi qilib shakillantirish imkonini beradi. Imon-e'tiqodli kishi esa barcha yo'llardan holi bo'lishi, ya'ni u pok, halol, to'g'ri so'z, o'zga moliga, omonatiga hiyonat qilmasligi, qanoatli, sabr-toqatli, saxovatli, diyonatli va sadoqatlilik kabi sifatlarga ega bo'lishi bilan boshqalardan ajralib turadi. Shu sababdan bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlarning e'tiqod sog'lom fikrlovchi yoshlar ruhiyatiga ta'sir etishimiz mumkin. Endi esa biz ta'lim jarayonida e'tiqod tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy manbalardan olingan Yassaviy tariqatiga oid ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish va psixologik metodikalari orqali tahlil qilamiz.

Tarixchilarning guvoh berishicha, madrasa va maktablarda Qur'oni karim va Sunna, payg'ambar hadislaridan keyin Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlartidan o'quv qo'llanma sifatida yoshlarni sog'lom fikr egasi etib shakllantirishda keng foydalanilgan. Xoja Ahmad Yassaviy shogirdlariga faqat ruhoni ustoz, pir bo'libgina qolmay, har bir fuqaro ahliga munosib, halol vaadolatli, ish buyurgan holda yashash yo'llarini o'rgatadi. Xususan, insonlarni sog'lom fikr egasi bolishga chaqirib, g'ayri millat vakillariga ozor bermang, deya ta'kidlaydi:

Sunnat ermish kofir bo'lsa, berma ozor,

Ko'ngli qattiq dilozordan xudo bezor.

Jumladan, ushbu hikmatda bugungi kun uchun nihoyatda ahamiyatda bo'lgan millatlararo bag'rikenglik, xushmuomalalik, shirinso'zlik, poklikni targ'ib qilingan. Yosh Ahmad bolaligidanoq o'zining bilimdonligi bilan tengdoshlari orasida aql-zakovati bilan namuna bo'lib kelgan. Uning bilimdonligi, aql-zakovati haqida bir qancha rivoyatlar mavjud.

Inson pokligi haqida fikr yuritar ekanmiz, shuni albatta nazarda tutishimiz joizki, ya'ni inson ko'nglini poklab olishi uchun, avvalo, o'zidagi son-sanoqsiz illatlardan xalos bo'lishi zarur. U birinchi navbatda, ma'rifatsizlikdan qutilishi uchun o'zi bilan o'zi kurashishi, o'ziga tanqidiy nuqtai nazardan qarab, nafs va g'araz, kibru havo, ta'magirlilik kabi nuqsonlarni yengishi, o'ziga o'zi qat'iy ta'nayu dashnomlar berishi lozim.

Axmad Yassaviy nodon zolimlar, dunyo va nafs uchun intiluvchi aqlsiz, farosatsiz kishilarni tanqid qilishdan oldin aql-zakovat bilan fikr yuritib, ko'z dunyo moliga to'ymasligini, bunday kishilarning hech qanday so'zi xalqqa ta'sir qilmasligini ko'rsatib, har bir kishida havas qiluvchi sifat – iymon, e'tiqod, poklik bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Uning "Rivoyatlarga ko'ra, Xoja Ahmad Yassaviy 63 ga, ya'ni payg'ambar yoshiga kirkach, g'orga kirib, umrini toat-ibodat, bilim olish va vaqt-i-vaqti bilan

yoshlarga bilim berish bilan shug'ullangan. U umrini riyozaqtida o'tkazib, 125 (boshqa manbalarda ko'rsatilishicha-133) yoshida vafot qilgan.” Sharqda o'tgan aksariyat bilimdon, xudojo'y, Haq yo'lida fidoyi so'fiy – donishmandlardan (Arslonbobning 300 yosh yashaganligi, ustozi Yusuf Hamadoniyning 95 yil umr ko'rghanligi kabi) ko'pchiligining 100-120 yil umr ko'rghanlarini inobatga olsak, Yassaviyning shuncha yoshga kirgani va shu yillar davomida yoshlarning puhiy poklik bilan shug'ullanganligiga ishonsa bo'ladi. [1. 211-b.]

Xoja Ahmad Yassaviy o'z-o'zini tarbiyalab, oliy ruhiy olam sirlariga yetishgani, ya'ni valiylikka erishgani uchun o'z nafsidan, kibru havodan kechgan edi. Quyidagi baytlarda buni yaqqol ko'rish mumkin:

Jondin kechgan chin oshiqlar dunyo demas,

Bu           dunyoda           sudu           ziyon           bo'lsa           bilmas,

Nafsi o'luk, obu ta'om g'amin yemas,

Dunyo kelib, jilva qilsa boqqani yo'q.

Xoja Ahmad Yassaviy ilm-ma'rifat targ'ibotchisi sifatida ko'zga ko'ringan pyhshunos olim hamdir. Bu ma'noda mol-dunyo yig'uvchilarga, mol-dunyo uchun bir-biriga shafqat qilmasdan nodonlik, aqidaparastlik, johillik qiluvchilarga nafrati zo'r ekanligini o'z ta'biri bilan ko'rsatadigan quyidagi hikmatini keltirish o'rnlidir:

Nodonlarga essiz so'zim, hayf hikmat,

Odammen deb belin bog'lar, qani hikmat!

Dunyo uchun bir biriga qilmas shafqat,

Zolimlarga asir bo'lib o'ldim ma'no.

Ushbu hikmatda teran ijtimoiy psixologik ma'no bor. Ya'ni nodonlarga so'zning bedor ketishi, ular odamman deb belini bog'lashlari bilan hech kimga himmat ko'rsata olmasliklari, mol-dunyo uchun bir-birlariga shafqat qilmasliklarini aytadi. Aynan zolimlikning kelib chiqish sababini ham Xoja Ahmad Yassaviy bilimsizlik va nodonlikdan, ruhiyarini nosog'lomligi deb biladi.

Yassaviy yoshlarga murojat qilib, bilim egallash oson emasligini, buning uchun esa yillar davomida har qanday qiyinchiligu mashaqqatlarga qaramasdan tinmay izlanish va o'z ustida qunt bilan ishslash kishidan irodali bo'lishni talab qiladi.

Xoja Ahmad Yassaviy o'zining “Hikmatlar” nomli asarida ustozi Arslonbob so'zlarini eslatib, ana shunday bilimsiz dindorlarni qattiq qoralaydi:

Pir xizmatin qilduk deb, tolibmen deb yurarlar,

Yoyyib harom-harishni, qo'lbarig'a urarlar,

Ko'zlarida name yo'q, xalq ichra kirarlar,

Arslon bobom so'zlarin eshititingiz, tabarruk.

Yassaviyning “Hikmatlar” asaridagi ilm va aqliy, puhiy poklikga doir fikrlarni o'rganish va ularni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Xoja Ahmad Yassaviy faqat yirik din arbobi bo'libgina qolmay, ajoyib shoir va buyuk ma'rifatparvar, pedagog hamda bugungi kun psixologi ekanligi bilan ham ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Uning

atrof-muhitdagi hayot ziddiyatlarini kuzatishlari juda nozik va teran psixologik mushohadalarga boyligi bilan ajralib turadi. Bir zamonlar gullab yashnagan, ilmi urfon yuksakligiga erishgan Buxoroda ham, boshqa shaharlardagi kabi, shohlar va hokimlar, vazirlar va hatto olimlardan himmat, ma'rifat, insof-diyonat yo'qolib ketganligi, ijtimoiy-ma'naviy poklikning bo'shliqning paydo bo'layotganligi Yassaviyni juda qattiq tashvishga solayotganligini quyidagicha ifodalaydi:

Ahli dunyo, xalqimizda sahovat yo'q,  
Podshohlarda vazirlardaadolat yo'q,  
Darveshlarning duosida ijobat yo'q,  
Turlik balo xalq ustig'a yog'di, do'stlar.

Bu misralar barcha xalqni ogohlantiruvchi aqliy, ta'lim-tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan misralardir. Komillikning asosini, u hamma vaqt, ilmda, aqliy poklikda deb bilgan va bu bilan u xalq orasida katta shuhrat qozongan.

Shu bilan birga Xoja Ahmad Yassaviy fanni, bilimni chala, sayoz o'rganishga qarshi chiqadi. Har bir so'zning ma'nosini bilib olgan holda ularni xalqiga, o'sib kelayotgan yosh avlodga nishon deb keltirgan hikmatlaridagi so'zlarini dur va gavhar bilan tenglashtiradi.

Demak, biz o'quvchi-yoshlarga va talabalarga ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar va kundalik hayotda ommaviy axborot vositalari orqali olinayotgan ma'lumotlarni ularga yetuk, komil inson bo'lib shakillanishlari uchun kamlik qilishi haqida tushuntirib, ularni tinmay izlanishiga, rang-barang dunyo voqealari bilan xabardor bo'lib borishlariga hamda tarixiy-ma'naviy meroslarimizdan voqif bo'lishlariga undashimiz zarur.

Yana bir hikmatida Xoja Ahmad Yassaviy yoshlarni mushohada qilishga undab, shunday deb yozadi:

Yirtib shafqat pardasin, tilab diydor va'dasin,  
Ochib ko'ngil diydasin mushohada qilinglar.

Va, nihoyat, o'zining bilim borasida qul bo'lganiga, shogirdlari ko'p bo'lganiga ishora qilib shunday misralarni keltiradi va yoshlarni o'zidan ibrat olishga chaqiradi:

Qul Xoja Ahmad, qul bo'lgan, yo'l ustida qul bo'lgan,  
Toliblarga mul bo'lgan, andin ibrat olinglar.

Xoja Ahmad Yassaviy bu fikrlari bilan yoshlarni ustozlariga ergashib o'qishga, bilim olishga havas uyg'otishda, katta ahamiyatga ega bo'lgan pedagogik va psixologik muammoni o'rta ga tashlaydi. Ahmad Yassaviyning bosib o'tgan hayot yo'li ham shogirdlariga ibrat bo'lib, ularga bilim va saboq berib, puhiyatini poklikka qaratishga undaydi.

Ahmad Yassaviyning asarlari falsafa, pedagogika, mantiq, adabiyot fanlari kabi psixologiya fanining rivojida ham alohida o'rinn egallaydi. Uning 4400 ta hikmatidagi har bir so'z inson kamolotini sog'lom gikr egasi, ma'naviy poklik, ilm manbai bo'lib xizmat qiladi.

Qul Xoja Ahmad, har bir so'zing dardga darmon,  
Toliblarga bayon qilsam qolmas armon,  
To'rt ming to'rt yuz hikmat aydim, Haqdin farmon,  
Farmon bo'lsa to o'lguncha so'zlasni men.

Bu misralarda ham hikmatlarning katta psixologik ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tgan. Umuman, Yassaviyning barkamol inson haqidagi g'oyalari yosh avlodni ma'naviy poklik puhini singdirishda barcha davrlar uchun xos bo'lgan eng ilg'or dastur sifatida xizmat qiladi.

Xoja Ahmad Yassaviyning tasavvuridagi komil inson shaxsining shakillanish omillarini aniqlash uchun, tasavvuf ta'limotiga murojat qilish lozim. Tasavvuf ilmiga har bir insonning avvalo o'zligini anglashi va shu orqali Olloh yagonaligini tan olishi va uni sevishi kabilar kiradi. Har bir shaxsning o'z-o'zini anglashi – bu o'z nuqson va aybu qusurlarini anglashi demakdir.

Xoja Ahmad Yassaviy insonda Vatanga muhabbat tuyg'usi ustuvor bo'lmosg'I kerakligini muhim o'ringa qo'yadi. Shuningdek, u shaxsning ona Vatanida o'sib ulg'ayishi, butun umri davomida yaxshilarga erishishi loziliginini ham ko'rsatib beradi.

Xoja Ahmad Yassaviy butun ijodiy faoliyati davomida komillikning yuqori darajasiga erishsa-da, o'zidan qoniqmaganligini aytadi. Shu sababdan u har bir insonni fursat g'animatligida shaxsiy kamolotidagi kamchiliklarni bartaraf qilishga chaqiradi.

Xullas, Xoja Ahmad Yassaviy zikrida buyuk bir ruhoniy poklik olamiga intilish shaxs kamoloti deb izohlanadi. Kamolotga yetishish esa hayotda mashaqqat chekish, izlanish orqali amalga oshadi, deb ko'rsatadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abdullayeva V. A. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: O'qituvchi, 1990 – 412 b.
2. Komilov N.Tasavvuf.-T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at hamda O'zbekiston nashriyotlari. 1 – 2 kitoblar. – T.: 1996 – 1999, - 272 b.: -208b.
3. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992 – 208 b.
4. Nasaviy ( Yevgeniy Yefimovich Berezikov ). Xoja Ahmad Yassaviy. – T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993. – 15 b.
5. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991 – 256 b.
6. Bebaho ma'naviy meros. – T.: "Qatortol-Kamolot", 1999. -18 b.
7. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O'qituvchi, 1994 – 432 b.